



STUDY AND RECONSTRUCTION OF ISLAMIC MONUMENTS OF SAMARKAND IN THE EARLY 20TH CENTURY

Sevara Uroqova

Master's student, Department of Historiography and Source Studies

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

urokovasevara@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samarkand, islamic monuments, Kusam ibn Abbas, Ishratkhana, Russian scholars.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article analyzes the study and reconstruction of Islamic architectural monuments in Samarkand in the early 20th century. It examines the architectural features of the monuments, their reconstruction, and preservation in accordance with modern requirements, based on historical sources and archival materials. The article also discusses methodological approaches to scientific research and the results of archaeological and restoration work conducted at that time.

XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND ISLOM OBIDALARINING O'RGANILISHI VA QAYTA REKONSTRUKSIYA QILINISHI

Sevara Uroqova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqan davlat universiteti

"Tarixshunoslik va manbashunoslik" kafedrasi magistranti

urokovasevara@gmail.com

Samarqan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Samarqand, islom obidaları, Qusam ibn Abbos, Ishratxona, rus olimlari.

Annotatsiya: Maqola XX asr boshlarida Samarqanddagi islomiy me'moriy yodgorliklarning o'rganilishi va ularni qayta rekonstruksiya qilish jarayonini tahlil qiladi. Unda tarixiy manbalar va arxiv materiallari asosida yodgorliklarning arxitektura xususiyatlari, ularning zamonaviy talablarga moslashtirilgan rekonstruksiya va saqlash masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek,

maqolada ilmiy izlanishlarning uslubiy yondashuvlari va o'sha davrda olib borilgan arkeologik va restavratsion ishlarning natijalari muhokama qilinadi.

ИЗУЧЕНИЕ И РЕКОНСТРУКЦИЯ ИСЛАМСКИХ ПАМЯТНИКОВ САМАРКАНДА В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Севара Урокова

Магистрант кафедры «Историография и источниковедение»

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

urokovasevara@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Самарканд, исламские памятники, Кусам ибн Аббас, Ишратхона, российские ученые.

Аннотация: В статье анализируется процесс изучения и реконструкции исламских архитектурных памятников Самарканда в начале XX века. Рассматриваются архитектурные особенности памятников, их реконструкция и сохранение в соответствии с современными требованиями, на основе исторических источников и архивных материалов. В статье также обсуждаются методологические подходы к научным исследованиям и результаты археологических и реставрационных работ, проводившихся в то время.

Kirish. XIX asr o'rtalarida Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan va mustamlaka siyosati ostida iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotga bo'ysindirilgan. Shu davrda mahalliy ma'rifatparvarlar – ilm va ta'lim orqali aholining ongini oshirishga harakat qilganlar. Shaharda ko'plab madrasalar va maktablar faol bo'lib, talabalarga dars berilgan va ular yashash hamda ta'lim olish imkoniga ega bo'lgan. Samarqandning tarixiy yodgorliklari – XIX-XX asrlarda tadqiq qilingan, suratga olingan va qayta tiklangan.

Shohi Zinda ansambli qadimiy maqbaralar, masjidlar va chillaxonalarni o'z ichiga oladi. Ansambl XIV-XV asrlarda rivojlangan va Temuriylar hamda Mang'itlar davrida me'moriy bezaklari bilan boyitilgan. Mirzo Ulug'bek Samarqandda yirik ilmiy markaz tashkil etib, astronomiya, matematika va boshqa fanlarda yutuqlarni qo'lga kiritgan. Rasadxona qurilishi va ilmiy ishlari Sharq va G'arb olimlari, sharqshunoslari va tarixchilari tomonidan yuqori baholangan

va shahar ilmiy merosining markaziy qismini tashkil etadi. Shu bilan Samarqand nafaqat siyosiy, balki ilmiy, madaniy va dini markaz sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XIX asrning 60-70-yillarida Samarqandda Rossiya hukmronligi o'rnatildi. Rossiya Samarqandni qurol, qaqshatqich urush yordamida bosib oldi va o'zining vassaliga aylantirdi. Samarqandda to'raligicha mustamlakachilik siyosati o'rnatilib, iqtisod, madaniyat ham shunga bo'ysundirildi. Lekin boshqa sharq mamlakatlarida bo'lib o'tayotgan ma'rifatparvarlik va mustamlakachilikka qarshi harakatlar ta'sirida Samarqandda ham Rossiya imperiyasi mustamlakachilari xohishiga zid holda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy Ajziy kabi ma'rifatparvarlar o'lka aholisini ilmi qilishga harakat qildi. Asta sekin undan ma'rifiy masalalar bilan birga siyosiy masalalarni ham olg'a sura boshlagan jadidlik harakati kelib chiqdi [9. – B.: 82].

Samarqandda XIX asr oxirlarida o'nlab madrasa va mahalliy maktablar mavjud bo'lib, ularning ba'zilari ko'p yuzlab talabalarni o'z ichiga olgan. Binolar ikki yoki uch qavatli bo'lib, to'rtburchakli makonni eslatar, unda talabalar ham yashab, ham dars tayyorlagan. Ushbu xususiyati bilan Samarqand madrasa va maktablari ingliz universitetlari va kollejlari juda o'xshardi. Shubhasiz, Samarqandning asrlar davomida davrning o'ta murakkab bosqichlarida izchil rivojlanib, jaholat to'siqlarini yengib, yuksak ilm-ma'rifat maskaniga aylanganini tom ma'noda jasorat na'munasi deyish mumkin. [9. – B.: 82] Normanning keltirib o'tgan ma'lumotlarining isboti sifatida shuni aytish mumkinki, XIX asrda Samarqand shahri va uning atroflarida jami 22 ta bozor, jumladan, shaharning shimoliy qismida bitta ot bozori mavjud bo'lgan. Samarqandning Registon qismida turli yo'nalishlarga boradigan boshqa bozor ko'chalari mavjud bo'lib, ularning ba'zilarida haligacha eski toshdan qurilgan karvonsaroylar bo'lsa, boshqa binolar butunlay yangi yog'ochlardan qurilgan [10. – B.: 25].

Samarqand podsho qo'shinlari tomonidan egallanganidan so'ng, 1868-yilda sayyoh A.L.Fedchenko Ishratxona xarobalarini birinchi bo'lib ko'zdan kechirgan. Uning rafiqasi, botanik O.A.Fedchenko maqbaraning umumiy suratini ishlab chiqqan. K.P.fon Kaufmanning topshirig'i bilan A.L.Kun "Turkiston al'bomini" arxeologik qismini ishlab chiqqan. Unda maqbaraning umumiy ko'rinishi bo'yicha rasmlar ham alohida o'rin egallagan [1. – стр: 14]. B.P.Denik o'z kuzatishlarini bir qator Ishratxonaga bag'ishlangan maqolalarida ham aks ettirgan [2. – стр.: 38-39].

Maqbaraning suratlari keyinchalik G.A.Pankratevning ham albomidan joy egallagan. 1903-yil rassom M.V.Stolyarov maqbaraning janubiy – g'arbiy tomonini yorqin ranglarda birinchi bo'lib tasvirlagan. 1919-yil yozida M.E.Masson maqbaraning qo'yi qismlaridagi rasmlarni qayta

tiklashga muvaffaq bo'ldi. Mazkur yilning kuzida Ishratxona tarixiy yodgorliklarni himoya qilish kengashining ro'yxatiga kiritiladi. Yodgorlik ustida chex me'mori Yu.Smolick ham tadqiqotlar olib borgan. U yodgorlikning umumiy rejasini, chizmalarini ishlab chiqqan [1. – ctp: 15-20]. Olingan rasm va suratlarga ko'ra Ishratxona o'tgan asrdayoq tuzatib bo'lmas darajada qattiq shikastlangan: asosiy gumbazning yuqori qismi va yon binolarning tomlari qulab tushgan, koshinlarning ko'p qismi tushib ketgan. 1903-yildagi zilzilada esa gumbaz tamomila qulagan va markaziy xonaning ravoqsimon (gumbazsimon) qilib ishlangan murakkab tepa qismini o'zi bilan birga o'pirib olib tushgan [3. – ctp.: 4].

Ishratxonadagi ko'plab qabrlar noma'lum kishilar tomonidan ochilgan. O'g'rilar boylik ilinjida markaziy sag'anaidagi qabrlarni ochishgan. Buning natijasida esa ko'plab qabrlar vayron bo'lgan. Maqbara atroflari axlat bilan qoplangan [1. – ctp: 43-44].

1905-yil Maxmud Turdiboyev Ishratxona xarobalarining g'ishtlaridan Abdu Darun qabristonida 6-4 ta hujra qurish uchun ruxsat olish maqsadida Samarqand viloyat gubernatoriga ariza bilan murojaat qiladi. Maqbarani qayta tiklashga umid yo'qligini bilgan Samarqand viloyatining boshlig'i uning talabini qondirishga harakat qilib, Turkiston general gubernatorligining devonxonasiga bu haqda ma'lumot beradi. Shu-yilning 24 noyabrida N.I.Veselovskiy Ishratxona g'ishtlaridan foydalanish uchun ruxsat beradi. Shundan so'ng Abdu Darun xonaqosining g'arbiy tomonidagi hovuz yonida Ishratxona g'ishtlaridan qurilgan mayda madrasachalar paydo bo'ladi [4. – ctp.: 16-17].

Shahar tashqarisida qurilgan bu yodgorlik, asrlar o'tishi davomida unutila borib, xaroba holga kelib qolgan. Uning xarobalari 1939-1940 yillari prof. M.E.Masson rahbarligida bir guruh olimlar tomonidan o'rganilib, tadqiqot ishlari birinchi navbatda yodgorlik tagidagi sakkiz qirrali tagxonaga qaratilgan edi. Tagxonaga janubi g'arb tomondan zinalar orqali tushilgan va uning qolgan uch tomonida, imoratni shamollatish uchun ishlangan tor yo'laksimon ko'rinishdagi tuynuklari bo'lgan. Maqbaraga mahalliy xalq hech qachon tegmagan, u faqat tabiat ta'siri va urushlar natijasida vayron holga kelib qolgan [5. – B.: 40-41]. Ishratxona maqbarasidan uncha uzoq bo'lmagan joyda XV asrga oid Xo'ja Abdu Darun maqbarasi ham joylashgan [6. – ctp: 13].

Shohi Zinda Samarqandning qadimgi o'rni Afrosiyobni tomosha qilgan sayyohlar uning janub tomoniga yursalar, qiyalikda joylashgan, moviy gumbazlari quyosh nurida yarqirab turgan Shohi Zinda ansambliga duch keladilar. Samarqandliklar uchun muqaddas ziyoratgohga aylangan bu ulug' yodgorlik uzoq-yaqindan kelgan sayyohlar uchun doimo suyuqlik ziyoratgohidir. "Samarqand marvaridi" degan nomga sazovor bo'lgan Shohi Zinda ansambli nafaqat tarixiy-me'morchilik yodgorligi, balki, mashhur allomalar, avliyolar malikalar, lashkarboshilarning

abadiy oromgohi hamdir. Bu yerdagi har bir maqbara faqat o'zigagina xos bezaklar bilan qoplangan bo'lishiga qaramay ularning barchasi yaxlit bir kompozitsiyani, tugal bir me'morchilik asarini tashkil etadi.

Shohi Zindaning yana bir qimmatli tomoni shundaki, bu erda Samarqandning qariyib uch ming-yillik tarixi mujassamdir. Negaki, Shohi Zinda ansambli joylashgan maydon Afrosiyobning janubiy hududlariga kiradi, agarda bu yer qazib ko'rilsa eramizdan oldingi VI-I asrga oid arxeologik materiallar topiladi. Tarixchilarning aniqlashlaricha, Shohi Zinda ansamblining shakllanishi eramizning XI asrlaridan boshlangandir. Shohi Zinda so'zining ma'nosi "tirik shoh" bo'lib, qariyib ming-yildan buyon bu nom xalq o'rtasida yashab kelmokda. Musulmon tarixchilarining yozishlaricha, tirik shoh-Muhammad payg'ambarimizning amakivachchasi Qusam ibn Abbosga berilgan unvondir. Samarqandlik tarixchi Abul Hakimiyning yozishicha, Qusam ibn Abbos payg'ambarimizning muborak yuzlarini ko'rgan oxirgi kishidir.

Musulmon tarixchilarining yozishlaricha, Qusam ibn Abbos VII asrlarda arab lashkarlari tarkibida Samarqandga kelgan va bu erda dini islomni targ'ib qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Bir kuni Qusam ibn Abbos namoz ibodati bilan mashg'ul bo'lib turganida kofirlar hujumiga uchragan va uzilgan boshini qo'liga olib g'or orqali erning tagiga tushib ketgan. U to qiyomatga qadar tirik yurar emish. Qusam ibn Abbos kirib ketgan g'orning oldida unga atab qabr yasalgan va XI asrda uning ustiga maqbara qurilgan. Maqbaradan tashqari bu erda hashamatli ziyoratxona, masjid va chillaxonalar ham faoliyat ko'rsatgandir. 1220-yili ro'y bergan mug'ul istilosi Shohi Zinda maqbarasi takdirida xam ayanchli rol uynadi. Mo'g'ullar bu erdagi ko'pgina inshootlar va qabrlarni ostin-ustun qilib tashladilar. Ammo, ular ham Qusam ibn Abbos qabriga tegishdan cho'chidilar. Lekin, qarovsizlik oqibatidan bu qabr ham ancha xarobaga aylangan edi.

XIV asrning boshlariga kelib samarqandlik din ahllari va rahbarlarning sa'y harakatlari bilan Qusam ibn Abbosning qabri ustiga qaytadan maqbara qurildi, ziyoratxona va chillaxona ham qayta ta'mirlandi Ajoyib va nafis bezaklar bilan qoplangan bu xilxona o'z salobati bilan diqqatingizni tortadi. Shirinbeka og'a maqbarasining qarama-qarshi tomonida esa barvaqt vafot etgan Shodimulk og'a va uning onasi qabrlarini o'z ichiga olgan maqbara joylashgandir. Bu maqbarani samarqandlik me'morlar usta Baxriddin va usto Shamsiddinlar hamda buxorolik usta Zayniddinlar barpo qilganliklari yozib qo'yilgandir. Tarixiy manbalardan anglashilicha, Shodimulk og'a 1371-yili, uning onasi Turkon og'a 1383-yili qazo qilganlar. Bu maqbaralardan o'tgan sayyohlar yo'lakning chap tomonida yonma-yon qad rostlagan ikki noma'lum maqbaraga duch keladilar. Faqat ularning bittasida uni yaratgan ustaning, ya'ni, Ali Nasafiyning nomi saqlangandir.

Shohi Zinda ansamblining o'rtasidagi koridordan sekin-asta qadam tashlab borayotgan sayyohlar endi eng baland nuqtaga yaqinlashadilar. Bu yerda ansamblning eng qadimiy qismi joylashgandir. Amir Temurning eng jasur lashkarboshisi amir Burunduk bu erda abadiy uyquda yotibdi. Uning maqbarasi taxminan 1380-yillarda barpo qilingandir. Amir Burunduk qabrini ziyorat qilib o'tgan sayyohlar, endi koridorning o'ng tomoniga burilib Qusam ibn Abbos maqbarasiga kirib boradilar. Qusam ibn Abbosning qabrtoshi juda hashamatli bo'lib ustma-ust qo'yilgan uchala tosh ham nafis mozaika bilan qoplangan va ularga Qur'ondan keltirilgan oyatlar yozilgandir. Shuningdek, bu erda ziyoratxona, chillaxona va XI asrda qurilgan masjid xam yaxshi saqlangan. Shohi Zinda ansamblidagi koridorning eng turida bir necha maqbaralar, masjid va chortoq barpo qilingan.

Tarixchilarning fikrlaricha, bu yerdagi masjid, chortoq va maqbarani Amir Temurning xotini Tuman og'a barpo qildirgan va bu pokdomon malikaning o'zi ham shu erda abadiy uyquda yotibdi. Tuman og'a maqbarasining qarshi tomonida, shaxsiyati noma'lum, ammo yoshligida qazo qilgan malikaning qabri saqlangandir. Koridorning eng turida esa ulamo Xoja Ahmadning maqbarasi joylashgan bo'lib, bu eng oxirgi inshootdir. Albatta, bu erda Shohi Zinda ansambl haqida to'liq ma'lumot berishning imkoni yo'qdir. Shu narsa ma'lumki, bu ansambl qoraxoniylar davrida qurilishi bmslangan, Amir Temur va temuriylar davrida rivojlangan, mang'itlar davrida qurilishi yakunlangan. Markaziy Osiyo me'morchiligi tarixida alohida e'tiborga sazovor bo'lgan Shohi Zinda haqida yuz marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan ma'qulroq deb o'ylaymiz.

Amir Temur va Ulug'bek davrida bu yerda qurilish ishlariga ahamiyat bepilgan. Shohi Zinda ansamblidagi yodgorliklarning ko'pchiligi XIV asrga ta'luqli. Ansamblning bosh darvozasi janubga ko'chaga qaratib qurilgan. Darvozaxonani Ulug'bek 1434-1435 yillarda o'g'li Abdulazizga atab qurdirgan. Shimol tomondan peshtoq va chordoqqa tutash kichik madrasa 1812-1813 yillarda Samarqand hokimi tomonidan qurdirilgan. XI asrning oxirlarida qurilgan Qusam ibn Abbos laqbarasi ikki bino: go'rxona va masjididan iborat. Maq'aradagi bizgacha etib kelgan eng qadimgi imorat qoldig'i bu – Afrosiyob qo'rg'oning devobi, Sulton Sanjar qurdirgan minora hamda qoraxoniylar davridan qolgan maqbaraning ba'zi devorlaridir.

1921-yilda me'mor A.P.Udalenkov boshchiligidagi maxsus ilmiy-badiy kengash ekspeditsiyasi maqbarani o'rganishga kirishganlar. Yodgorlik me'moriy jihatdan o'rganib chiqilgan 1922-yil Shohi Zinda maqbarasida Samarqand qo'mitasi tomonidan ta'mirlash va qayta tiklash ishlari olib borilgan. Old tomoning ichki va tashqi tomonlari ta'mirlangan. Ayrim joylarda arxeologik qazishma ishlari olib borilgan. Maqbara gumbazlari mustahkamlangan [6. – str: 12].

Bu erdagi 36 zinopaya sement aralashmasi bilan qoplanib, ta'mirlanib chiqilgan. Samarqanddagi hech bir yodgorlik Shohi Zinda kabi boy bezaklarga ega emas [7. – B.: 100].

Natijalar va muhokama. Temuriylar sulolasining shon-shuhratini dunyoga yoyishda ulug' xizmat qilgan buyuk munajjim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek 1409-yili Sohibqiron bobosining taxtiga o'tirgach, Amir Temur ishlarining chinakkam yordamchisiga aylangan. Ulug'bek olimlar, shoirlarga katta g'amxo'rlik qilgan. Samarqandda katta ilmiy markaz yaratgan. Astronomiyaga oid ko'plab sharhlar yozgan. U poytaxt Samarqandga 100 dan oshiq olimlarni yig'ib katta ilmiy markaz-maktab yaratdi. Ulug'bek Samarqandga mashhur olimlarni yig'arkan ularning oldiga Sharq va G'arbda yashab o'tgan yirik olimlarning asarlarini yig'ish, ularni tarjima qilish, ularga mukammal ilmiy sharhlar yozish va matematika, geometriya, medisina, tarix, astronomiya, poetika, tarix ilmlarining muhim qirralari rivojlantirish muammosini qo'ydi.

Ulug'bek Samarqandda yaratgan bu ilmiy maktab fan tarixida shu darajada chukur iz qoldirdiki, bundan 250-yil ilgari mashhur fransuz yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi Volter bu maktabni "Samarqand akademiyasi" deb atagan edi. Ulug'bek yaratgan bu ilmiy maktab ayniqsa astronomiya fanida katta yutuqlarga erishdiki, bu maktabning shon-shuhbatini dunyoga yoyilishiga sabab bo'ldi. Samarqand olimlari Ulug'bekning buyrug'i bilan astronomiyaga oid risolalarga sharhlar yozar ekanlar, bu risolalardagi ko'plab ma'lumotlarni qaqa tekshirib ko'rishga extiyoj seza boshladilar. Bu hol Samarqandda rasadxona qurishni taqazo etadi.

Olimlar bu fikrni Mirzo Ulug'bekka aytganlarida, hukmdorning ham niyati shunday ekanligi ma'lum bo'ldi. Shundan so'ng, bunyod qilinadigan rasadxonaning loyihasi yaratildi va uni barpo etish uchun joy belgilandi. Cho'pon ota tepaligining janubidagi Obi Rahmat arig'ining yaqinidagi tepalikda 1420-yili qurilish ishlari boshlab yuborilgan. U qariyib 9-yil davom etgan. Rasadxona silindr shaklida uch qavatli, balandligi 30,4 metr bo'lgan. Uning asosiy qismida radiusi 40,2 metrli gigant sekstant bo'lgan. Sekstantning janubiy qismi yer ostida joylashgan bo'lib qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 metr balandda joylashgan. Rasadxona o'rta asrlarda asbob-uskuna jihatidan ham beqiyos bo'lgan. Sharq astronomiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Ziji Kurogoniy" asari shu yerda yaratilgan [7. – B.: 106-107].

G'arbiy yevropalik tarixchi va sayyohlarning Samarqand tarixiga qiziqishi Temuriylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy tarix mavzusidan boshlanib, Rossiya bosqini davridagi Samarqand tarixining o'rganilishigacha bo'lgan tadqiqot doirasini tashkil qilgan. Sharqshunos olim Armeniy Vamberi o'zining asarida XIX asrda Samarqandda bozor va karvonsaroy, shu jumladan, hojilar uchun tekinga beriladigan yotoqxonalar borligini ta'kidlagan. Vamberi Amir Temur qabri yonidagi xususiy uyda yashab, Samarqand to'g'risida ma'lumot to'plagan. Samarqanddagi eng

diqqatga sazovor joy hazrati Shohi Zinda majmuasi bo'lib, bu joy shaharning shimoli-g'arbida, Amir Temurga yozgi qarorgoh sifatida xizmat qilgan bino yonida joylashgan. Amir Temur qabri esa janubi-g'arbiy tomonda joylashgan bo'lib, u ajoyib gumbaz bilan qoplangan va devor bilan o'ralgan bo'lgan. Bundan tashqari, Vamberi XV-XIX asrlarda Samarqandda mavjud bo'lgan uchta madrasa asosan ochiq osmon ostida joylashgan va Samarqand Registonini tashkil qilganini ham ta'kidlab o'tgan [9. – B.: 83].

1908-yili omad havaskor arxeolog Vyatkinga kulib boqdi. U Samarqand ziyolilari Abu Said Maxsum va Egamxo'ja mullolar yordamida, XVI asrga oid vaqf hujjatlari asosida rasadxona o'rnini topishga erishdi. 1908-1909-yillarda Vyatkin olib borgan arxeologik qazishmalar o'z samarasini berdi. Shundan so'ng turli arxeologlar tomonidan bu erda olib borilgan qazishmalar o'z natijasini ko'rsatdi va natijada rasadxona poydevori va qoya toshdan o'yib yasalgan kvadrant to'liq ochilgan. 1914-yili kvadrant ustiga pishiq g'ishtlardan g'ulof barpo qilingan. Shuningdek bu yerda sal keyinchalik 1964-yili ikki qavatli Ulug'bek me'morial muzeyi ham qurilgan. Bu muzeydagi eksponatlarda ulug' munajjim Mirzo Ulug'bekning ilm yo'lida chekkan zaxmatlari o'z aksini topgan.

Muzey yonida rasadxona o'rnini topib fan olamiga qaytarishda katta xizmat qilgan arxeolog V.Vyatkinning qabri ham bor. Bu yerda shuningdek 1941-yil I.A.Suxaryov, M.E.Masson boshchiligida, 1948-yil V.A.Shishkin rahbarligida arxeologik izlanishlar olib borilib rasadxona to'lig'icha ochilgan [8. – B.: 135-137].

Samarqand ahli tomonidan asrlar davomida qadr-qimmatlanib kelayotgan Doniyor payg'ambar maqbarasi eng mo'ta'bar ziyoratgohlardan biridir. Amir Temur o'zining oxirgi yetti yillik harbiy yurishlaridan birida (1397-1404) Mosul shahri yaqinida to'xtagan. Temur bu yerda Doniyor payg'ambar qabrini borib ziyorat qilgan, shundan so'ng Temur u kishining xoklarini poytaxt Samarqand shahriga olib kelishga buyruq bergan. Ixlos etgan Temur, Doniyor payg'ambar haqiga katta e'tibor zoxir etib uni qabri joyini o'zi tanlagan. Shundan so'ng maqbara Siyob yaqinida (tepalik) joylashtirilgan. Maqbaradagi olti gumbaz XX asr boshlarida Mahmud oqsoqol boshchiligidagi Samarqand ustalari tomonidan qurilgan. XIX asr o'rtalaridagi suratlarga qaraganda qabr ustiga o'sha vaqtlarda daryo toshlari terilgan. Bizgacha bu olti gumbazdan beshtasi saqlanib qolgan.

Hazrati Hizr masjidi qadimgi Afrosiyob shahrining janubida joylashgan. Xonaqoh to'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan. Xonaqohning g'arb tomonida mehrob bo'lib, uning ikki yonida hujralar joylashgan. Masjid minorasi alohida joylashgan. Xonaqohning mehrobida uning qayta ta'mirlangan vaqti yozilgan (1854). 1884-yil xonaqoda ta'mirlash ishlari olib borilgan. 1889-yil

ayvon qayta qurilgan. Xuddi shu-yili sharqiy tomondan kiraverishdagi yoʻlda darvozaxona ham qurilgan. 1919-yilda shimoliy-sharqiy tomonda darvozaxona va sharqiy minora ham qurilgan boʻlib, mazkur inshootni quruvchi bosh usta Abduqodir Baqiyevdir (1860-1933).

Xulosa. Shunday qilib, 1868-yil Samarqandning ham Chor Rossiyasi qoʻshinlari tomonidan bosib olinishi bu yerdagi hayotni izdan chiqargan. Taʼlim va tarbiya sohasidagi oʻzgarishlar natijasida mahalliy xalq oʻz milliy qiyofasini yoʻqotgan. Madrasa, masjid, maqbaralar xarob holga kelib qolgan. Tarixiy obidalar va madaniy meʼrosning koʻpchiligi yoʻqotilgan yoki tashib ketilgan. Shahardagi koʻplab maqbaralarda noqonuniy ravishda qabrlar ochib tekshirilgan, ayrim qabrlar, maqbara eshiklari va bezaklar oʻgʻirlangan va vayron qilingan. Muqaddas chokardiza qabristoni tekislab tashlangan. Oʻsha vaqtda taʼmirlanishi boshlangan tarixiy obidalarning koʻpi taʼmirlanmasdan qolgan. Bularning barchasi tarixiy obidalarimizni vayron holga kelib qolishiga sabab boʻlgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. M.E.Массон. Ишратхана. – Самарканд: 1958.
2. Б.П.Деник. Искусство средней Азии. – Москва: 1927.
3. Г.А.Пугаченкова. Ишратхона. – Ташкент: 1968.
4. Г.А.Панкратев. Исторические памятники города Самарканда. – Самарканд: 1910.
5. Matbuot va axborot agentligi. “Moziydan sado” jurnali. 2007-yil 4-son.
6. И.И.Умняков. Архитектурные памятники Средней Азии. – Ташкент: 1929.
7. Q.Мамарahimov, A.Berdimurodov. Samarqand – tarixiy maʼlumotnoma. – Toshkent: 2000.
8. Mirzo Ulugʻbek ijodi va uning jahon sivilizasiyasida tutgan oʻrni. – Samarqand: 1994.
9. Imomov U.I. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Samarqand tarixining xorijiy mamlakatlar tarixshunosligida yoritilishi // Imom Buxoriy saboqlari. № 1. – Samarqand: 2025.
10. Imomov U.I. Gʻarbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining oʻrganilishi // Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar. № 1. – Buxoro: 2025.